“YANGI O‘ZBEKISTON” UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILG‘OR TADQIQOTLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/07.07.2025. FM/T.192.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

XAMIDOV TURSUNALI OLIMJON O‘G‘LI

KENGAYTIRILGAN GRAVITATSIYA NAZARIYALARIDA QORA O‘RALAR ATROFIDAGI ASTROFIZIK JARAYONLAR

01.04.02 – Nazariy fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UDK 530.12:531.51

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi

Table of Contents of Doctor of Philosophy (PhD) Dissertation in Physical and Mathematical Sciences

Содержание диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

"YANGI O'ZBEKISTON" UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILG'OR TADQIQOTLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/07.07.2025. FM/T.192.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

XAMIDOV TURSUNALI OLIMJON O'G'LI

KENGAYTIRILGAN GRAVITATSIYA NAZARIYALARIDA QORA O'RALAR ATROFIDAGI ASTROFIZIK JARAYONLAR

01.04.02 – Nazariy fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/FM1327 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Fundamental va amaliy tadqiqotlar intitutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy Kengashning internet sahifasida (www.ias.newuu.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Shaymatov Sanjar Ruzimurotovich** Fizika-matematika fanlari doktori
Rasmiy opponentlar:	**Abdujabbarov Ahmadjon Adiljanovich** Fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Xugayev Avas Vasilevich Fizika-matematika fanlari nomzodi
Yetakchi tashkilot:	**Al-Farobiy nomidagi Qozog‘iston Milliy Universiteti, Olmaota, Qozog‘iston**

Dissertatsiya “Yangi O‘zbekiston” universiteti huzuridagi Ilg‘or tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/07.07.2025.FM/T.192.01 raqamli Ilmiy Kengashning 2025-yil “____” _______ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100007, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Movarounnaxr ko‘chasi, 1-uy, “Yangi O‘zbekiston” universiteti huzuridagi Ilg‘or tadqiqotlar instituti, tel.: +99871202-41-11 , e-mail: info@newuu.uz.)

Dissertatsiya bilan “Yangi O‘zbekiston” universiteti huzuridagi Ilg‘or tadqiqotlar instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100007, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Movarounnaxr ko‘chasi, 1-uy, “Yangi O‘zbekiston” universiteti huzuridagi Ilg‘or tadqiqotlar instituti, tel.: +99871 202-41-11).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” __________ kuni tarqatildi.
(2025-yil “___”_________dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi)

B. J. Axmedov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash raisi f.-m.f.d., akademik

H.E. Eshquvatov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash ilmiy kotibi, f.-m.f. bo‘yicha PhD.

Sh.N. Mardonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Gravitatsion toʻlqin astronomiyasi va Hodisa Gorizonti Teleskopi (Event Horizon Telescope) kuzatuvlari qora oʻra va ularning atrofining misli koʻrilmagan darajada aniq tasvirlarini taqdim etishda davom etar ekan, qora oʻra dinamikasida kvant ta'sirlarning tutgan oʻrni tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu zamonaviy kuzatuvlar kengaytirilgan gravitatsiya nazariyalarida yangi umumlashtirilgan yechimlarni topish va fazo-vaqtning kvant tabiati hamda singulyarlik muammosi bilan bogʻliq masalalarni oʻrganishda nihoyatda muhimdir. Bundan tashqari, Enshteynning umumiy nisbiylik nazariyasi muhim va asosiy nazariya boʻlsa-da, u qora oʻralarning singulyarligi va qorongʻi modda muammolarini toʻliq hal qila olmaydi. Shu sababli, halqa kvant gravitatsiya modellari kabi istiqbolli muqobil gravitatsiya nazariyalarini ishlab chiqish bir paytlar faqat umumiy nisbiylik sohasiga tegishli deb hisoblangan ushbu muammolarni yaxshiroq tushunish, shuningdek, astrofizik kuzatuvlar orqali model parametrlari boʻyicha aniq cheklovlarni olish uchun istiqbolli yoʻnalishlarni taklif etadi. Shu nuqtayi nazardan, kvant parametrlar hozirgi yoki kelajakdagi kuzatuvlarda kuzatish mumkin boʻlgan izlarni qoldirishi mumkinmi yoki yoʻqligini oʻrganish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli qora oʻra fazo-vaqtiga kvant ta'sirlarning toʻgʻridan-toʻgʻri tekshirilishi yoki kuzatuvlar bilan cheklanishi juda muhim.

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, nazariy astrofizikani rivojlantirish ustuvor yoʻnalishlardan biri sifatida dolzarb ahamiyatga ega. 2022–2026 [1] -yillarga moʻljallangan Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish Harakatlar strategiyasida ilm-fanni rivojlantirish va uning amaliyotga tatbiq etilishi boʻyicha asosiy yoʻnalishlar belgilangan. Astrofizik obyektlarning energetikasini oʻrganish esa fundamental tadqiqotlarning muhim masalalaridan biridir.

Tadqiqot quyidagi me'yoriy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalar doirasiga mos keladi: Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida" farmoni va 2018-yil 29-noyabrdagi Oʻzbekiston Hukumati tomonidan chiqarilgan "Oʻzbekistonda 2019–2021 yillarga moʻljallangan asosiy tarkibiy islohotlar yoʻnalishlari yoʻl xaritasi".

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Tadqiqot Oʻzbekiston Respublikasi fan va texnikaning ustuvor yoʻnalishlariga muvofiq amalga oshirildi: II. "Quvvat, energiya va resurslarni tejash".

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya

[1] **Eslatma**: 2022-yil 1-yanvardagi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli "2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning rivojlanish strategiyasi toʻgʻrisida"gi farmoni.

tadqiqoti innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan moliyalashtirilgan ilmiy loyihalar doirasida bajarilgan: FL-7923051796, “Sferik simmetrik gravitatsion maydonlarda skalyar maydonlar dinamikasi va kvant nurlatgichlarni modellashtirish”.

Tadqiqotning maqsadi: Astrofizik jarayonlar va yuqori aniqlikdagi kuzatuvlar asosida muqobil gravitatsiya nazariyalarida qora o‘ra parametrlari uchun nazariy cheklovlar olish asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Parametrlashtirilgan Konopolya-Rezolla-Zhidenko qora o‘rasi atrofidagi zarrachalar harakatini o‘rganish va Konopolya-Rezolla-Zhidenko qora o‘rasi deformatsiya parametrlari eng kichik barqaror aylanma orbita parametrlarini qanday o‘zgartirishini aniqlash.

Konopolya-Rezolla-Zhidenko qora o‘rasi deformatsiya parametrlarining magnit Penrose jarayoni orqali energiya olishiga qanday ta‘sir qilishini o‘rganish.

Konopolya-Rezolla-Zhidenko qora o‘rasi fazo-vaqtida magnit Penrose jarayoni orqali chiqib ketayotgan protonlarning energiyasini baholash va bu orqali qora o‘ra massasi va magnit maydon induksiyasiga qo‘yiladigan cheklovlarni aniqlash.

Halqa kvant qora o‘ra assimptotik bir jinsli magnit maydonda joylashganda, kvant tuzatish parametri ϵ gorizont, ergosfera, zarracha dinamikasi va magnit Penrose jarayoni samaradorligiga qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganish.

Magnit Penrose jarayoni orqali tezlashtirilgan va chiqib ketgan protonlarning energiyasini hisoblash orqali halqa kvant qora o‘raning zarrachalarni tezlashtirish qobiliyatini baholash.

Kvant tuzatish parametri ξ uchun yuqori chastotali kvazidavriy tebranishlar, Merkuriy va S2 yulduzning perigeliy siljishlari asosida kvant tuzatilgan qora o‘raning kvant tuzatish parametri ξ uchun chegaraviy qiymatlarni aniqlash.

Tadqiqot obyekti: astrofizik kompakt obyektlar, astrofizik kompakt obyektlardan energiya ajratib olish mexanizmlari, perigeliy siljishi, kvazidavriy tebranishlar.

Tadqiqot predmeti: Kvant tuzatilgan qora o‘ra, halqa kvant qora o‘ra va Konopolya-Rezolla-Zhidenko qora o‘rasining energetikasi, kvant tuzatish parametrlarining xossalari, kompakt obyektlar atrofidagi zarracha dinamikasi hamda differensial tenglamalarni yechishning analitik va sonli usullari.

Tadqiqot usullari: nazariy fizika va astrofizika yondashuvlari, zamonaviy nazariy astrofizika va matematik fizika usullari, shuningdek, maydon va zarrachalar dinamikasi bilan bog‘liq differensial tenglamalarni yechish uchun analitik va raqamli usullar.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Birinchi marta, kvant tuzatilgan qora o‘ra fazo-vaqt yechimidagi kvant tuzatish parametri ξ uchun quyidagi cheklovlar aniqlandi: Quyosh tizimi sinovlaridan $\xi \leq 0.01869$, Sgr A* atrofidagi S2 yulduzi orbitasi ma’lumotlaridan $\xi \leq 0.73528$ va rentgen ikkilik tizimlardagi kvazidavriy tebranishlar kuzatuvlaridan $\xi \leq 2.086$.

Birinchi marta, magnit Penrose jarayonining samaradorligi halqa kvant qora o‘rasi uchun 19.3 % ga teng ekanligi ko‘rsatildi (Kerr holatida bu 20.7 %). Shuningdek, magnit Penrose jarayonining samaradorligi Kerr qora o‘rasidagi kabi 100 % dan oshishi va kvant tuzatma parametrining $\epsilon = 0.2$ qiymati uchun 140 % dan ham oshishi mumkinligi aniqlandi.

Birinchi marta, halqa kvant qora o‘rasining kvant tuzatma parametri $\epsilon = 0.2$ bo‘lganda, M87 qora o‘rasidan uchib chiqqan protonlar energiyasi kosmik nurlar spektrining “to‘piq” (“ankle” ↔ 10^{18}–10^{19} eV) sohasiga mos keladigan $E_p^{M87} = 1.89 \times 10^{18}$ eVga energiyaga yetishi mumkinligi ko‘rsatildi.

Birinchi marta, Konoplya–Rezzolla–Zhidenko qora o‘rasi uchun magnit Penrose jarayonining samaradorligi Kerr holatiga nisbatan yuqori bo‘lib, $\eta \approx 23.3\%$ atrofida ekanligi aniqlandi.

Birinchi marta, Konoplya–Rezzolla–Zhidenko qora o‘rasi uchun deformatsiya parametri $\delta_2 = 0.2$ bo‘lganda, SgrA* qora o‘rasidan uchib chiqqan protonlar energiyasi kosmik nurlar spektrining “tizza” (“knee” ↔ 10^{15}–10^{16} eV) sohasiga mos keladigan $E_p^{\mathrm{SgrA*}} = 6.27 \times 10^{15}$ eV energiyaga yetishi mumkinligi ko‘rsatildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Kvant tuzatilgan qora o‘ralarning kvant tuzatma parametri ξ ning chegaraviy qiymati Quyosh sistemasi uchun $\xi \leq 0.01869$, Sgr A* uchun $\xi \leq 0.73528$ va kuchli gravitatsion maydonlarda $\xi \leq 2.086$ ekanligi aniqlandi.

Halqa kvant gravitatsiya parametri ϵ ortishi bilan gorizont, statik chegaraviy sirt kichrayishi, nostabil orbitalar ichkariga, stabil orbita esa tashqariga surilishi aniqlandi. Magnit Penrose jarayoni samaradorligi $\epsilon = 0.3$ holat uchun $a = a_{extrimal}$ bo‘lganda Kerr holatidan farqli ravishda 20.7% emas balki 19.3% ekanligi aniqlandi.

Konopolya-Rezolla-Zhidenko qora o‘rasi tezlashtirgan protonlarning energiyasi tashqi magnit maydon B va aylanish deformatsiyasi parametri δ_2 ga kuchli bog‘liq va $\delta_2 = 0.2$ holatida SgrA* uchun protonlarning energiyasi kosmik nurlar spektridagi tizza (“knee”) 10^{15}–10^{16} eV energiya oralig‘iga mos keladigan $E_p^{\mathrm{SgrA*}} = 6.27 \times 10^{15}$ eV energiyaga yetishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada standart matematik va nazariy fizika usullaridan foydalanish, shu jumladan relyativistik astrofizikaning zamonaviy usullari, yuqori samarali raqamli usulllar va dasturiy ta’minotdan foydalanish orqali ta’minlanadi. Natijalar umumiy nisbiylik nazariyasi va nazariy fizikaning matematik asoslariga qat’iy rioya qilib olingan. Shuningdek, zamonaviy sonli va analitik hisoblash usullari qo‘llanilgan hamda natijalar mavjud kuzatuv ma’lumotlari va boshqa tadqiqotchilarning topilmalari bilan solishtirilgan. Dissertatsiyada bayon etilgan xulosalar kompakt obyektlar astrofizikasining asosiy tamoyillariga to‘la mos keladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:

Ilmiy ahamiyati shundaki, ushbu tadqiqotda ilgari surilgan istiqbolli muqobil nazariyalar (masalan, halqa kvant gravitatsiya) fazoning mikroskopik miqyosdagi kvant xossalari va o'ziga xos singulyarlik muammolarini tubdan tushunishga zamin yaratadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiyada taklif etilgan model kvant tuzatish parametrining kvant tuzatilgan qora o'ra fazo-vaqtidagi rolini yoritishda yangi qarashlarni taqdim etishi va kvant gravitatsion hodisalar haqidagi tushunchalarni yanada mukammal anglash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining qo'llanilishi: Ushbu dissertatsiyada taqdim etilgan natijalar — ayniqsa, kompakt astrofizik obyektlarning energetikasi bilan bog'liq topilmalar — xalqaro tadqiqotchilar e'tiborini qozongan va yuqori impakt faktorga ega, ilmiy ekspertizadan o'tgan jurnallarda iqtibos keltirilgan: Physics Letters B, Volume 864, article id. 139398 Web-Sc, IF: 4.3, The European Physical Journal C, Volume 85, article number 26, (2025), Web-Sc, IF: 4.2, The European Physical Journal C, Volume 85, article number 725, (2025), Web-Sc, IF: 4.2, The European Physical Journal C, Volume 85, № 726, (2025), Web-Sc, IF: 4.2.

Mazkur ilmiy natijalar Vellore Institute of Technology instituti tomonidan qo'llab-quvvatlangan dasturlar doirasida qo'llanilgan (Dr. Pankaj Sheoran tomonidan taqdim etilgan rasmiy xat asosida).

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 7 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, shulardan 5 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 106 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismi mavzuning dolzarbligi va zarurligini, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligini, muammoning o'rganilganlik darajasini, uning dissertatsiya tayyorlangan oliy ta'lim muassasasi tadqiqot rejalari bilan bog'liqligini, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, mavzu haqidagi qisqa ma'lumot, usullar, ilmiy yangilik, amaliy natija, ishonchlilik, ilmiy va amaliy ahamiyat, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, natijalarning tasdiqlanishi, nashr etilishi, shuningdek, dissertatsiyaning tuzilishi va qamrovini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning **birinchi bobi "Halqa kvant gravitatsiyasida qora o'ralarni tadqiq qilish"** deb nomlanib halqa kvant qora o'ra va kvant tuzatilgan qora o'ralar tahlil qilingan. Ushbu bobda kvant tuzatilgan qora o'ralarning kvant tuzatish parametri ξ uchun yuqori chegaraviy qiymatlar aniqlanadi va halqa kvant qora o'ralarning kvant tuzatish parametri ϵ halqa kvant qora o'ralar gorizonti, ergosferasi va atrofidagi magnit maydonga qanday ta'sir qilishi o'rganilgan.

Kvant tuzatilgan qora o'ra uchun fazo-vaqt metrikasi quyidagicha ifodalanadi:

$$ds^2 = -f(r)dt^2 + f(r)^{-1}dr^2 + r^2(d\theta^2 + \sin^2\theta d\phi^2)\,, \qquad (1)$$

bu yerda

$$f(r) = \left(1 - \frac{2M}{r}\right)\left(1 + \frac{\xi^2}{r^2}\left(1 - \frac{2M}{r}\right)\right), \tag{2}$$

bu yerda M — qora o‘raning massasi, ξ — kvant tuzatish parametri. Keyingi tahlillarni soddalashtirish uchun ξ parametrni M bo‘yicha normallashtiramiz: $\xi \to \xi/M$.

Kvant tuzatilgan qora o‘ra atrofida harakatlanuvchi zarraning trayektoriya tenglamasi quyidagicha ifodalanadi:

$$\left(\frac{dr}{d\phi}\right)^2 = \frac{r^4}{\mathcal{L}^2}\left(\mathcal{E}^2 - f(r)\left(1 + \frac{\mathcal{L}^2}{r^2}\right)\right), \tag{3}$$



Rasm 1. Kvant tuzatilgan qora o‘ra fazo-vaqtida, ekvatorial tekislikda ($z = 0$) harakatlanuvchi sinov zarrasining trayektoriyalari kvant tuzatish parametri ξ ning turli qiymatlari uchun tasvirlangan. *Chap qism:* Xususiy energiyasi $E = 0.992$, xususiy impuls momenti $L = 5$ va boshlang‘ich teskari radial koordinatasi $u = 1/r = 0.01$ bo‘lgan zarraning $M = 1$ massali qora o‘ra atrofidagi harakati. *O‘ng qism:* $E = 0.999$, $L = 12.5$ va $u = 0.01$ bo‘lgan zarraning perigeliysi siljishiga ξ ning ta’siri ko‘rsatilgan. ξ ortgani sari perigeliy siljishi kamayadi, bu esa kvant tuzatishlar orbital dinamikaga sezilarli ta’sir qilishini ko‘rsatadi.

To‘liq aylanishdan keyingi perigeliy siljishi quyidagicha ekanligi aniqlandi:

$$\Delta\phi = \frac{6\pi GM}{ac^2(1-e^2)} - \frac{\pi GM\xi^2}{ac^2(1-e^2)} \times \\ \times\left(1 - \frac{6GM}{ac^2(1-e^2)} - \frac{16G^2M^2}{a^2c^4(1-e^2)^2} + \frac{60G^3M^3}{a^3c^6(1-e^2)^3}\right). \tag{4}$$

1-rasmda kvant tuzatish parametri ξ ning kvant tuzatilgan qora o‘ra atrofida harakatlanuvchi zarra trayektoriyasiga ta’siri ko‘rsatilgan. Rasmning chap qismida ξ ning turli qiymatlarida, boshlang‘ich xususiy energiya, xususiy impuls momenti va boshlang‘ich vaziyat o‘zgarmas bo‘lgan holda, zarraning trayektoriyasi tasvirlangan. $\xi = 0.0$ bo‘lgan qora chiziq klassik Schwarzschild qora o‘rasi atrofida harakatlanuvchi zarraning trayektoriyasini bildiradi. ξ ortishi bilan zarra trayektoriyalari klassik holatdan sezilarli darajada og‘adi. Bu esa kvant tuzatmalarning zarra harakatiga ta’sirini namoyish etadi. Rasmning o‘ng qismi ξ ning zarra perigeliysi siljishiga ta’sirini ko‘rsatadi. Grafikdan ko‘rinadiki, ξ ortgani sari perigeliy siljishi kamayadi. Bu tendensiya 4-formula bilan olingan analitik natijaga mos keladi va kvant tuzatmalar orbitadagi siljishini kamaytirishini tasdiqlaydi.

Merkuriy perigeliysi burilishining ξ ga bog‘liq sonli ifodasi quyidagicha ekanligi aniqlandi:

$$\Delta\phi = 2\pi \times (7.98744 \times 10^{-8}) - 2\pi \times (1.33124 \times 10^{-8})\xi^2 \,. \tag{5}$$

Birinchi va ikkinchi hadlar mos ravishda umumiy nisbiylik nazariyasining va kvant tuzatish parametrining ta’sirini ifodalaydi. Merkuriyning kuzatilgan perigeliy burilishi quyidagicha ifodalanadi:

$$2\pi \times 7.98697 \times 10^{-8} \leq \Delta\phi_{\text{obs}} \leq 2\pi \times 7.98771 \times 10^{-8} \ [\text{rad/rev}] \,. \tag{6}$$

5 va 6-tenglamalardan foydalanib, Merkuriyning perigeliy burilishi orqali ξ ning mumkin bo‘lgan qiymatini baholash mumkin:

$$\xi \leq 0.01869 \,. \tag{7}$$

S2 yulduzi uchun perigeliy burilishining sonli ifodasi:

$$\Delta\phi = 48.298 - 8.040\,\xi^2 \left[\frac{''}{\text{year}}\right]. \tag{8}$$

Sgr A* atrofida harakatlanuvchi S2 yulduzining kuzatilgan perigeliy burilishi:

$$43.951 \leq \Delta\phi_{\text{obs}} \leq 62.304 \left[\frac{''}{\text{year}}\right]. \tag{9}$$

8 va 9-tenglamalardan foydalanib, S2 yulduzi uchun ξ parametrining chegaraviy qiymatini aniqlash mumkin

$$\xi \leq 0.73528 \,. \tag{10}$$

Faraz qilaylik, zarra ekvatorial tekislikda ($\theta = \pi/2$) radiusi $r = r_c$ bo‘lgan aylanma orbitada harakatlanmoqda. Agar zarra r_c atrofidagi barqaror orbitasidan kichik δr va $\delta\theta$ chetlashishga uchrasa, u r_c atrofida tebranishni boshlaydi. Bu tebranishlar — epitsiklik chastotalar deb yuritiladi va ular radial hamda latitudinal (θ yo’nalishda) chastotalar bilan tavsiflanadi.

Uzoqdagi kuzatuvchi tomonidan o‘lchangan epitsiklik chastotalarning ifodasi quyidagicha:

$$\omega_r^2 = \frac{3M\xi^2 r^3(12M^2 - 8Mr + r^2) + Mr^6(r - 6M)}{r^{10}} - \\ - \frac{2\xi^4(r - 2M)^2(24M^2 - 13Mr + 2r^2)}{r^{10}}, \tag{11}$$

$$\omega_\theta^2 = \frac{Mr^3 - \xi^2(8M^2 - 6Mr + r^2)}{r^6} \,. \tag{12}$$

Chastotalarni SI birliklarida (Hz) ifodalash uchun quyidagi almashtirishdan foydalaniladi:

$$\nu_i = \frac{\omega_i}{2\pi}\frac{c^3}{GM} \,. \tag{13}$$

2-rasmda epitsiklik chastotalar ν_r va ν_θ ning r/M ga bog‘liqligi, uzoqdagi kuzatuvchi tomonidan o‘lchangan holda, ξ ning turli qiymatlari uchun tasvirlangan. ν_r hamda ν_θ chastotalari r/M oshgani sari kamayadi. ξ ning kattaroq qiymatlarida kichikroq tebranish chastotalari hosil bo’ladi. Bu ν_θ ni chapga, ν_r ni esa o‘ngga siljitadi.



Rasm 2. Uzoqdagi kuzatuvchi tomonidan o‘lchangan ν_θ va ν_r chastotalarining radial profili, kvant tuzatish parametri ξ ning turli qiymatlari uchun r/M ning funksiyasi sifatida tasvirlangan.

Biz rentgen qo‘sh yulduz tizimlaridagi to‘rtta kvazidavriy tabranishlar manbalarini tadqiq qildik. Tasdiqlangan kuzatuv ma’lumotlaridan foydalangan holda, kvant tuzatilgan qora o‘ra kvant tuzatish parametri ξ ning chegaraviy qiymatlarini aniqladik.

Parameters	GRS 1915 + 105	H1743-322	XTE J1550 - 564	GRO J1655 - 40
$M/M_\odot$	$12.45908^{+0.56642}_{-0.56419}$	$10.80299^{+0.54902}_{-0.53946}$	$8.81372^{+0.49328}_{-0.48624}$	$5.26059^{+0.20339}_{-0.21233}$
r/M	$7.43238^{+0.28877}_{-0.28595}$	$7.14127^{+0.27548}_{-0.27534}$	$7.14602^{+0.27428}_{-0.27173}$	$7.24254^{+0.25112}_{-0.24919}$
ξ/M	< 2.952	< 2.120	< 2.267	< 2.086

Jadval 1. Rentgen qo’sh yulduz tizimlaridagi kvazidavriy tebranishlarlardan aniqlangan kvant tuzatilgan qora o‘ra parametrlarining eng mos qiymatlari.

Kvant tuzatilgan qora o‘ra uchun uch o‘lchamli parametrlar fazosi $[r, M, \xi]$ bo‘yicha Markov zanjir Monte-Karlo (MCMC) tahlilini o‘tkazdik. Ushbu parametrlarning eng mos qiymatlari 1-jadvalda keltirilgan. 3-rasmda esa to‘rtta tanlangan astronomik obyekt uchun MCMC orqali olingan posterior taqsimotlar ko‘rsatilgan. Rasmda soya bilan ko‘rsatilgan sohalar mos ravishda 68%, 90% va 95% ishonchlilik intervallarini bildiradi va aniqlangan parametrlarning statistik noaniqliklari haqida tasavvur beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kvant tuzatish parametri ξ ning eng mos qiymati GRO J1655–40 obyektidan olingan bo‘lib, 95% ishonchlilik darajasida uning yuqori chegarasi $\xi \leq 2.086$. GRO J1655–40 yuqori o‘lchov aniqligiga ega bo‘lganligi sababli boshqa kvazidavriy tebranish manbalari orasidan alohida tanlab olindi. XTE J1550–564 va H1743–322 obyektlari tomonidan aniqlangan cheklovlar GRO J1655–40 ga yaqin bo‘lib, GRS 1915+105 esa biroz yuqoriroq chegaraviy qiymatni berdi. Shu boisdan, biz ξ parametr uchun quyidagi yakuniy cheklovni oldik

$$\xi \leq 2.086\,. \tag{14}$$

Ushbu ishda $\xi \leq 2.086$ yuqori chegarani aniqladik, bu esa M87 qora o‘rasi soyasi kuzatuvlari asosida avvalgi ishlarda topilgan $\xi \leq 2.304$ va Sgr A* qora o‘rasi soyasidan aniqlangan $\xi \leq 2.866$ qiymatlaridan yanada aniqroq cheklovni beradi. Oldingi ishlardan farqli ravishda, bizning yondashuvimiz ξ parametr uchun cheklovlarni qora o‘ra soyasi orqali emas, balki Rentgen nurlari manbalaridagi kvazidavriy tebranishlar ma’lumotlari tahlili orqali aniqlashga asoslangan. Bu esa kuchli gravitatsiya maydonlarida kvant tuzatilgan qora o‘ralarni tekshirish uchun muqobil va to‘ldiruvchi usul sifatida qaraladi.



Rasm 3. Grafiklarda qora o‘ra massasi M, o‘lchamsiz radial masofa r/M, va kvant tuzatish parametri ξ uchun posterior taqsimotlar tasvirlangan (majburiy rezonans modeli doirasida). Qizil uzlukli chiziqlar ξ parametr uchun 95% ishonchlilik darajasini bildiradi.

Shu bilan birga, aylanuvchi halqa kvant qora o‘rasining fazo-vaqt metrikasi Boyer–Lindquist koordinatalar sistemasida quyidagicha ifodalanadi:

$$ds^2 = -\frac{\Delta}{\Sigma}(dt - a\sin^2\theta d\phi)^2 + \frac{\Sigma}{\Delta}dr^2 + \Sigma d\theta^2 + \frac{\sin^2\theta}{\Sigma}(adt - (k^2 + a^2)d\phi)^2, \quad (15)$$

bu yerda

$$\Delta = \frac{(r - r_+)(r - r_-)(r^2)}{(r + r_*)^2} + a^2 ,$$
$$\Sigma = k^2(r) + a^2\cos^2\theta ,$$
$$k^2 = \frac{r^4 + a_0^2}{(r + r_*)^2} ,$$

bu yerda a qora o‘raning aylanish parametri. Aylanmaydigan halqa kvant qora o‘ra uchun ikkala gorizont quyidagicha aniqlanadi $r_+ = 2M/(1+P)^2$ va $r_- = 2MP^2/(1+P)^2$. Shuningdek, $r_* = \sqrt{r_+ r_-} = 2MP/(1+P)^2$, bu yerda M — qora o‘ra massasini bildiradi. P — bu polimerik funksiya va u quyidagicha ifodalanadi:

$$P = \frac{\sqrt{1+\epsilon^2} - 1}{\sqrt{1+\epsilon^2} + 1},$$

bu yerda ϵ Immirzi parametri γ va polimerik parametr δ ning ko‘paytmasi, va u $\epsilon = \gamma\delta \ll 1$ shartni qanoatlantirishi kerak.

$$a_0 = \frac{A_{\min}}{8\pi},$$

bu yerda $A_{\min}$ halqa kvant gravitatsiya nazariyasidagi minimum yuzaga mos keladi. Shuningdek, $A_{\min}$ Planck uzunligi l_{P} bilan quyidagi ifoda orqali bog‘langan

$$A_{\min} \simeq 4\sqrt{3}\pi\gamma l_{\mathrm{P}}^2 .$$

Shu sababli, a_0 Plank uzunligi l_{P} shkalasida bo’lib va juda kichik qiymatga ega bo‘lishi tahmin qilinadi. Shunday ekan, a_0 ning fazovaqt tuzilmasiga ta’siri kuzatiladigan masshtablarda deyarli ahamiyatsiz bo‘ladi. Shu bois, ushbu tadqiqotda biz $a_0 = 0$ deb qabul qilamiz.

Endi ϵ parametr halqa kvant qora o‘raning gorizont va ergosirtiga qanday ta’sir qilishini o‘rganamiz. Gorizont va statik chegaraviy sirt mos ravishda $g^{rr} = 0$ va $g_{tt} = 0$ shartlari orqali aniqlanadi. Ushbu shartlarga asoslanib, gorizontlar va ergosirtlar uchun quyidagi tenglamalarni yozishimiz mumkin,

$$r_{H\pm} = \frac{1}{4}(r_+ + r_-) + r_{H1} \pm r_{H2} , \quad (16)$$

$$r_{s\pm} = \frac{1}{4}(r_+ + r_-) + r_{s1} \pm r_{s2} . \quad (17)$$

Bu yerda, r_{H1}, r_{H2}, r_{s1}, va r_{s2} quyidagicha:

$$r_{H1} = \frac{1}{2}\left[\frac{1}{3}(a^2 + r_+ r_-) - a^2 + \frac{1}{4}(r_+ + r_-)^2 - r_+ r_- + \frac{A}{3\sqrt[3]{2}} + B\right]^{\frac{1}{2}},$$

$$r_{H2}=\frac{1}{2}[\frac{-4(r_{+}+r_{-})(a^{2}+r_{+}r_{-})-16a^{2}r_{*}+(r_{+}+r_{-})^{3}}{8r_{H1}}-\frac{1}{3}(a^{2}+r_{+}r_{-})-a^{2}$$
$$+\frac{1}{2}(r_{+}+r_{-})^{2}-r_{+}r_{-}-\frac{A}{3\sqrt[3]{2}}-B]^{\frac{1}{2}},$$

ya'ni

$$A=\sqrt[3]{C+D},$$
$$B=\frac{\sqrt[3]{2}E}{3A},$$
$$C=\sqrt{D^{2}-4E^{3}},$$
$$D=108a^{4}r_{*}^{2}-72a^{2}r_{*}^{2}(a^{2}+r_{+}r_{-})+18a^{2}(r_{+}+r_{-})r_{*}(a^{2}+r_{+}r_{-})$$
$$+2(a^{2}+r_{+}r_{-})^{3}+27a^{2}(r_{+}+r_{-})^{2}r_{*}^{2},$$
$$E=12a^{2}r_{*}^{2}+6a^{2}(r_{+}+r_{-})r_{*}+(a^{2}+r_{+}r_{-})^{2}.$$

r_{s1} va r_{s2} uchun ifodalar quyidagicha ifodalanadi

$$r_{s1}=\frac{1}{2}[-a^{2}\cos^{2}\theta+\frac{1}{3}(a^{2}\cos^{2}\theta+r_{+}r_{-})+\frac{1}{4}(r_{+}+r_{-})^{2}-r_{+}r_{-}+\frac{\mathcal{C}}{3\sqrt[3]{\mathcal{A}+\mathcal{B}}}$$
$$+\frac{\sqrt[3]{\mathcal{A}+\mathcal{B}}}{3\sqrt[3]{2}}]^{\frac{1}{2}},$$
$$r_{s2}=\frac{1}{2}\Big[\frac{1}{8r_{s1}}((r_{+}+r_{-})^{3}-4(r_{+}+r_{-})(a^{2}\cos^{2}\theta+r_{-}r_{+})-16a^{2}r_{*}\cos^{2}\theta)$$
$$-a^{2}\cos^{2}\theta-\frac{1}{3}(a^{2}\cos^{2}\theta+r_{+}r_{-})-r_{+}r_{-}+\frac{1}{2}(r_{+}+r_{-})^{2}-\frac{\mathcal{C}}{3\sqrt[3]{\mathcal{A}+\mathcal{B}}}$$
$$-\frac{\sqrt[3]{\mathcal{A}+\mathcal{B}}}{3\sqrt[3]{2}}\Big]^{\frac{1}{2}},$$

bu yerda

$$\mathcal{A}=\sqrt{\mathcal{B}^{2}-2\mathcal{C}^{3}},$$
$$\mathcal{B}=108a^{4}r_{*}^{2}\cos^{4}\theta+27a^{2}(r_{+}+r_{-})^{2}r_{*}^{2}\cos^{2}\theta-72a^{2}r_{*}^{2}\cos^{2}\theta(a^{2}\cos^{2}\theta+r_{+}r_{-})$$
$$+2(a^{2}\cos^{2}\theta+r_{+}r_{-})^{3}+18a^{2}(r_{+}+r_{-})r_{*}\cos^{2}\theta(a^{2}\cos^{2}\theta+r_{+}r_{-}),$$
$$\mathcal{C}=\sqrt[3]{2}[12a^{2}r_{*}^{2}\cos^{2}\theta+6a^{2}(r_{+}+r_{-})r_{*}\cos^{2}\theta+(a^{2}\cos^{2}\theta+r_{+}r_{-})^{2}].$$

Shuni ta'kidlash kerakki, $\epsilon=0$ bo'lganda (16) tenglama Kerr yechimining gorizontiga teng bo'ladi $r_{H\pm}=M\pm\sqrt{M^{2}-a^{2}}$. 4-rasmda ϵ parametrning tashqi gorizont (yuqori qator o'ngda) va tashqi statik-chegara sirtiga (chapda) ta'siri ko'rsatilgan. ϵ ortgani sari, tashqi gorizont hamda tashqi statik-chegara sirt qisqaradi. Biroq, aylanish parametri a doimiy bo'lgan holatda, umumiy ergosfera sohasi (ya'ni tashqi hodisalar gorizonti bilan tashqi statik-chegara sirti orasidagi fazo) ϵ oshgani sari kengayishini inobatga olish muhim (4-rasm chapda). 4-rasmning pastki o'ng qismida esa halqa kvant qora o'ra mavjud bo'lishi uchun ϵ va a parametrlarning mumkin bo'lgan qiymatlari aks etgan (bo'yalgan soha).

Astrofizikada magnit maydonlarning qora o'ra xususiyatlariga ta'siri muhim ahamiyatga ega. Avvalgi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, magnit maydon qora o'ra



Rasm 4. *Chapda:* Tashqi ergosfera radiusining r_{s+} burchak θ ga bog‘liqligi ϵ parametrining turli qiymatlarida ko‘rsatilgan. Nuqtali chiziq $\epsilon = 0$ holatidagi hodisalar gorizontini r_{H+} ifodalaydi, ichki qora disk esa ekstremal holatdagi hodisalar gorizontiga mos keladi. *Yuqori o‘ngda:* r_{H+} ning aylanish parametri a/M ga bog‘liqligi ϵ ning turli qiymatlarida ko‘rsatilgan. *Quyi o‘ngda:* ϵ deformatsiya parametr va a/M aylanish parametrining parametrlar fazosi tasvirlangan. Bo’yalgan soha halqa kvant qora o’ra mavjud bo‘lishi uchun ϵ va a larning mumkin bo‘lgan qiymatlari bildiradi.

atrofidagi akkretsiya diskining xususiyatlariga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Soddalik uchun, magnit maydon bir jinsli va qora o‘raning simmetriya o‘qi bo‘ylab yo‘nalgan deb qabul qilamiz. Shunda elektromagnit to‘rt-potensial quyidagicha ifodalanadi:

$$A^{\alpha} = C_1 \xi^{\alpha}_{(t)} + C_2 \xi^{\alpha}_{(\varphi)}\,, \tag{18}$$

bu yerda $\xi^{\alpha}_{(t)} = (\partial/\partial t)^{\alpha}$ va aksial $\xi^{\alpha}_{(\varphi)} = (\partial/\partial\phi)^{\alpha}$ Killing vectorlar bo’lib, C_1 va C_2 magnit maydonning xossalarini belgilovchi integrallanish konstantalari hisoblanadi. Asimptotik jihatdan bir jinsli magnit maydon xususiyatlariga asoslanib, bu konstantalarni quyidagicha aniqlash mumkin $C_1 = aB$ va $C_2 = B/2$. (18)-tenglamadan foydalanib, elektromagnit to‘rt-potensial komponentlarini quyidagicha aniqlandi

$$A_t = -\frac{aB}{2\Sigma}\left(2\Delta + [k(r)^2 - a^2 - \Delta]\sin^2\theta\right), \tag{19}$$

$$A_{\phi} = -\frac{B\sin^2\theta}{2\Sigma}\left(a^4 - k(r)^4 - 2a^2\Delta + a^2\sin^2\theta\Delta\right). \tag{20}$$

Dissertatsiyaning **II Bobi “Halqa kvant gravitatsiyasida qora o‘ralarning energetik xususiyatlari”** deb nomlanib, magnit Penrose jarayoni orqali halqa kvant qora o‘ralaridan energiya ajralib chiqish jarayoni o‘rganilgan.

Tasavvur qilaylik, zaryadsiz zarracha ($q_1 = 0$) qora o‘raga qarab harakatlanadi va ergosohada ikkita zarrachaga parchalanadi. Boshlang‘ich zarracha va uning parchalanishidan hosil bo‘lgan ikkita zarrachaning energiyalari va zaryadlari: (E_1, q_1), (E_2, q_2) va (E_3, q_3) bo‘lsin. Faraz qilamizki, massasi $m_2$bo‘lgan ikkinchi zarracha, manfiy energiya bilan ($E_2 < 0$) qora o‘raga qulaydi, massasi m_3 bo‘lgan uchinchi zarracha esa, qora o‘ra dan uchib chiqadi va energiyasi: $E_3 = E_1 - E_2 > E_1$, bo‘ladi. Ya’ni boshlang‘ich zarracha energiyasidan katta energiyaga ega bo‘ladi. Parchalanish jarayoni gorizontga qanchalik yaqin sodir bo‘lsa, energiya ajralib chiqish samaradorligi shunchalik yuqori bo‘ladi. Parchalanish aynan gorizontda (r_H) ro‘y bergan taqdirda, samaradorlik o‘zining maksimal qiymatiga erishadi

$$\eta_{max} = \frac{1}{2}\left(\sqrt{1 - \frac{(r_H - r_-)(r_H - r_+)}{r_H^2}} - 1\right) + \beta \frac{a\,(2r_H^2 - r_H(r_- + r_+) + r_- r_+)}{2r_H^2}, \tag{21}$$

bu yerda

$$\beta = \frac{q_3 BGM}{c^2 E_1} \sim \frac{qBGM}{mc^4},$$

magnit maydon parametri. a aylanish parametri bo‘lib u $a \to a/M$ kabi normallashtirildi.

5-rasmning yuqori qatorida samaradorlik η ning a ga bog‘liqligi β ning turli qiymatlari uchun ko‘rsatilgan bo‘lib, $\epsilon = 0.0$ va $\epsilon = 0.3$ holatlari ko‘rib chiqilgan. Quyi qator esa samaradorlikni ϵ va β ga bog‘liq holda ifodalaydi. Yuqori o‘ngdagi grafikda ko‘rish mumkinki, aylanish parametri a maksimal qiymatiga yaqinlashganda ($a \to a_{\max}$, ya’ni taxminan $a = 0.919$), samaradorlik taxminan 19.3% ni tashkil qiladi. Bu, Kerr holatidagi $a = 1$ da kuzatiladigan 20.7% samaradorlikdan bir oz kichikroqdir (yuqori chapdagi grafikda ko‘rsatilganidek). Shuningdek, 5-rasmning yuqori qator grafigidan ko‘rinib turibdiki, $\epsilon = 0$ holatida maksimal samaradorlik taxminan 150% gacha erishadi. Aksincha, $\epsilon = 0.3$ bo‘lsa, samaradorlik 140% atrofida bo‘ladi. Demak, ϵ ortishi maksimal samaradorlik va aylanish parametrining kamayishiga olib keladi. Bu tendensiya 5-rasmning quyi qatorida yanada aniqroq ko‘zga tashlanadi. 5-rasmning quyi chapdagi grafigida samaradorlik β magnit parametriga bog‘liq holda, turli ϵ qiymatlari uchun ko‘rsatilgan. Grafikdan ko‘rinadiki, β ortgani sari samaradorlik ham ortadi, biroq ϵ ortgan sari chiziqlarning gradiyenti (o‘sish tezligi) kamayadi. Xuddi shuningdek, quyi o‘ngdagi grafikda samaradorlik ϵ ga bog‘liq holda, turli β qiymatlari uchun tasvirlangan. Bu yerda ham ko‘rinadiki, samaradorlik β ortishi bilan ortadi, ammo ϵ ortgan sari kamayadi. Samaradorlik va aylanish parametrining ϵ ortishi bilan pasayishi, ϵ ning ergosfera va gorizontga ta’siri bilan bog‘liq. ϵ ortishi natijasida gorizont va ergosfera hajmining qisqarishi 4-rasmda tasvirlangan.

Endi magnit Penrose jarayoni orqali tezlashtirilgan protonlarga uzatilishi mumkin bo‘lgan energiya miqdoriga e’tibor qaratamiz. Bu tadqiqot koinot nurlarida kuzatilgan protonlarni tezlashtiruvchi ehtimoliy manbalarni aniqlashda muhim



Rasm 5. Grafiklar parametr ϵ ning samaradorlikka ta'sirini ko‘rsatadi. Yuqori qatordagi grafiklar $\epsilon = 0.0$ va $\epsilon = 0.3$ holatlari uchun samaradorlik η ning aylanish parametri a ga bog‘liqligini aks ettiradi. Pastki qatorda esa η samaradorlik ϵ ning turli qiymatlari uchun (chapda) magnit maydon parametri β ning funksiyasi sifatida va β ning turli qiymatlari uchun (o‘ngda) ϵ ning funksiyasi sifatida chizilgan. Aylanish parametri $a = 0.8$.

ahamiyatga ega. Faraz qilaylik, neytron halqa kvant qora o‘ra gorizonti sirtiga juda yaqin joyda beta-parchalanishga uchraydi. Bu jarayon quyidagicha tasvirlanadi:

$$n^0 \rightarrow p^+ + W^- \rightarrow p^+ + e^- + \overline{\nu}_e \,. \tag{22}$$

Ushbu jarayonda boshlang‘ich zarracha neytron n^0, va uchib chiquvchi zarracha proton p^+ hisoblanadi. Endi qochib chiqqan protonning energiyasini hisoblaymiz. (21) tenglamadan foydalanib, uchib chiqqan protonning maksimal energiyasi quyidagicha ifodalanadi

$$\begin{aligned} E_{max}^{p^+} = \frac{1}{2}\left(\sqrt{1 - \frac{(r_H - r_-)(r_H - r_+)}{r_H^2}} + 1\right) m_n c^2 \\ + \frac{eBGM}{c^2} \cdot \frac{a\,(2r_H^2 - r_H(r_- + r_+) + r_- r_+)}{2r_H^2}, \end{aligned} \tag{23}$$

bu yerda r_H — halqa kvant qora o‘ra gorizontidir.

Endi ϵ parametrining proton energiyasiga ta’sirini baholaymiz va 2-jadvalda har xil qora o‘ra nomzodlari uchun turli ϵ qiymatlarida protonning energiyalarini keltiramiz. Olingan natijalardan ko‘rinadiki, qora o’radan tezlashtirilgan zarrachalar energiyasi ularning massasi, atrofdagi magnit maydon va ϵ parametriga bog‘liqligi ko’rinadi. Qora o’ra massaning va tashqi magnit maydonning ortishi bilan tezlashtirilgan protoinlarning energiyasi ham ortishi kuzatildi. Biroq, ϵ parametrining ortishi esa proton energiyasining kamayishiga olib kelishi ko’rsatildi.

Source	Mass $[M_{\odot}]$	B [G]	E_{p^+} [eV]				
			$\epsilon = 0.0$	$\epsilon = 0.1$	$\epsilon = 0.2$	$\epsilon = 0.3$	
SgrA*	4.0×10^{6}	100	4.094	4.088	4.071	4.041	$\times 10^{15}$
M87*	6.2×10^{9}	30	1.904	1.901	1.893	1.879	$\times 10^{18}$
BZ	1.0×10^{9}	10^{4}	1.024	1.022	1.018	1.010	$\times 10^{20}$
NGC 1052	1.6×10^{8}	8×10^{4}	1.297	1.296	1.291	1.281	$\times 10^{20}$

Jadval 2. Jadvalda turli qora o'ralar tomonidan tezlashtirilgan va uchib chiqqan protonlar energiyasiga ϵ parametrining ta'siri ko'rsatilgan. Proton energiyalari ϵ ning turli qiymatlari uchun hisoblangan. Ushbu hisob-kitoblarda o'lchamsiz aylanish parametri $a = 0.5$ deb olingan.

Yuqori energiyali kosmik nurlarni hosil qiluvchi qora o'ra nomzodlarining kosmik nurlar spektriga qo'shayotgan hissasini chuqurroq tahlil qilish uchun, 6-rasmning yuqori chap qismida ushbu qora o'ralarning massasi va magnit maydoni bo'yicha mavjud cheklovlar, shuningdek, kosmik nurlar spektridagi kritik energiya nuqtalari ko'rsatilgan. Rasmda keltirilgan vertikal yashil chiziqlar turli qora o'ra nomzodlari uchun kuzatuv ma'lumotlari asosida aniqlangan magnit maydon diapazonini ifodalaydi. Uzluksiz qora, ko'k va pushti chiziqlar esa $\epsilon = 0$ holatida uchib chiqayotgan zarraning energiyasini ifodalaydi, bu esa halqa kvant qora o'raning Kerr qora o'raga o'tishiga mos keladi.



Rasm 6. Yuqori chap qismda tanlangan qora o'ra nomzodlari (masalan, SgrA⋆, NGC 1052, M87⋆ va BZ) uchun qora o'ra massasi M_{BH} va magnit maydoni B bo'yicha cheklovlar grafigi tasvirlangan. Bu obyektlar turli energiyalardagi yuqori energiyali protonlar manbai bo'lishi mumkin. BZ deb belgilangan manba $10^{9} M_{\odot}$ massasiga ega supermassiv qora o'ra bo'lib, uning magnit maydoni kuchi 10^{3} G dan 10^{4} G atrofida va bu Blandford-Znajek (BZ) mexanizmidagi relyativistik oqimlar nazariyasiga mos keladi. Grafikdagi qiya chiziqlar protonlarning turli energiyalarini va GZK chegarasini ko'rsatadi. Uzluksiz chiziqlar $\epsilon = 0$ holatiga (ya'ni Kerr qora o'ra holatiga), uzlukli chiziqlar esa $\epsilon = 0.3$ holatiga mos keladi. O'ng qismda esa beta yemirilishidan so'ng M87⋆ tomonidan tezlashtirilgan protonlarning energiyasi E ning ϵ ga bog'liqligi ko'rsatilgan. Bu yerda qora o'ra massasi $M = 6.2 \times 10^{9}\, M_{\odot}$. Har ikkala grafikda ham aylanish parametri $a = 0.9$ deb olingan.

Qizil chiziqlar Greisen-Zatsepin-Kuzmin (GZK) chegarasini, ya'ni kesilish effektini ifodalaydi. Bu chegara uzoq galaktikalardan bizning galaktikamizga tomon harakatlanayotgan protonlarning mumkin bo‘lgan eng yuqori energiyasini bildiradi. Nazariy jihatdan, bu chegara energiyasi taxminan 5×10^{19} eV deb baholanadi. Ushbu limit koinotdagi mikroto‘lqinli fon nurlanishi bilan yuqori energiyali protonlarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi, ayniqsa, yirik masshtabdagi galaktikalararo masofalarda bu effekt yaxshi seziladi.

Uzlukli chiziqlar $\epsilon \neq 0$ holatni ko‘rsatadi, ya’ni qora o‘ra halqa kvant qora o‘ra sifatida ko’rilganda, zarralarni yuqori energiyalarga tezlashtirish uchun qanday massa va magnit maydoni kerak bo‘lishini ifodalaydi. Grafikdan ko‘rinadiki, ϵ ortgani sari, zarrachani belgilangan energiyagacha tezlashtirish uchun kuchliroq magnit maydoni talab qilinadi. Shuningdek, grafik SgrA* ning “tizza” (knee) energiyali, NGC 1052 esa “to‘piq” (ankle) yoki nihoyatda yuqori energiyali kosmik nurlar manbai sifatida xizmat qilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bu energiya chiziqlari kosmik nurlar spektridagi muhim xususiyatlarni belgilaydi. Masalan, “tizza” energiyadan ($10^{15} - 10^{16}$ eV) yuqori energiyalarda kosmik nurlar oqimi keskin kamayadi, bu esa spektrda o‘tish nuqtasini bildiradi. Boshqa tomondan, “to‘piq” energiyadan ($10^{18.5}$ eV) keyin spektr tekislanadi va bu dominant manbalarning o‘zgarishini anglatadi. 6-rasmning o‘ng qismi M87* tomonidan tezlashtirilgan protonlar energiyasining ϵ ga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Grafikdan ko‘rinadiki, ϵ ortgani sari, protonlarning energiyasi kamayadi.

Dissertatsiyaning **III Bobi** “**Parametrik Konoplya-Rezzolla-Zhidenko qora o‘ra fazo-vaqt metrikasi energetikasiga oid astrofizik tahlillar**” deb nomlanib, Parametrik Konoplya-Rezzolla-Zhidenko qora o‘ra atrofidagi energetik jarayonlar magnit Penrose jarayoni misolida o’rganildi. Boyer-Lindquist koordinatalarida parametrik Konopolya-Rezolla-Zhidenko metrikasini quyidagicha ifodalanadi

$$ds^2 = -\frac{N^2 - W^2\sin^2\theta}{K^2}dt^2 - 2Wr\sin^2\theta dt d\phi + \\ + K^2r^2\sin^2\theta d\phi^2 + \frac{\Sigma B^2}{N^2}dr^2 + \Sigma r^2 d\theta^2 , \qquad (24)$$

bu yerda

$$N^2 = \left(1 - \frac{r_0}{r}\right)\left(1 - \frac{\epsilon_0 r_0}{r} + (k_{00} - \epsilon_0)\frac{r_0^2}{r^2} + \frac{\delta_1 r_0^3}{r^3}\right) + \\ + \left(\frac{a_{20}r_0^3}{r^3} + \frac{a_{21}r_0^4}{r^4} + T\right)\cos^2\theta,$$

$$B = 1 + \frac{\delta_4 r_0^2}{r^2} + \frac{\delta_5 r_0^2}{r^2}\cos^2\theta,$$

$$W = \frac{1}{\Sigma}\left(\frac{\omega_{00}r_0^2}{r^2} + \frac{\delta_2 r_0^3}{r^3} + \frac{\delta_3 r_0^3}{r^3}\cos^2\theta\right),$$

$$K^2 = 1 + \frac{aW}{r} + \frac{1}{\Sigma}\left(\frac{k_{00}r_0^2}{r^2} + \left(\frac{k_{20}r_0^2}{r^2} + T\right)\cos^2\theta\right),$$

$$T = \frac{k_{21} r_0^3}{r^3 \left(1 + \frac{k_{22}\left(1 - \frac{r_0}{r}\right)}{1 + k_{23}\left(1 - \frac{r_0}{r}\right)}\right)},$$

$$\Sigma = 1 + \frac{a^2}{r^2}\cos^2\theta,$$

bu yerda o'lchamsiz aylanish parametri $a = J/M^2$ va hodisa gorizonti $r_0 = 1 + \sqrt{1 - a^2}$. Yana, quyidagi parametrlar ham kiritiladi

$$\begin{aligned}
\epsilon_0 &= \frac{2 - r_0}{r_0}, & a_{20} &= \frac{2a^2}{r_0^3}, & a_{21} &= -\frac{a^4}{r_0^4} + \delta_6,\\
\omega_{00} &= \frac{2a}{r_0^2}, & k_{00} &= k_{23} = \frac{a^2}{r_0^2}, & k_{21} &= \frac{a^4}{r_0^4} - \frac{2a^2}{r_0^3} - \delta_6,\\
k_{20} &= 0, & k_{22} &= -\frac{a^2}{r_0^2}.
\end{aligned}$$

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, parametrik Konopolya-Rezolla-Zhidenko qora o'rasi fazo-vaqt metrikasi Kerr metrikasidan chetlashishni ko'rsatadi. Ushbu chetlashishlar olti xil deformatsiya parametrlari yordamida kiritiladi, ular δ_i bilan belgilanadi ($i = 1,2,\dots,6$). Fizik nuqtai nazardan bu deformatsiya parametrlari quyidagicha talqin qilinadi:

- $\delta_1 \rightarrow g_{tt}$ komponentadagi deformatsiyani ifodalaydi,
- $\delta_2, \delta_3 \rightarrow$ metrikadagi aylanishga oid deformatsiyalarni ifodalaydi,
- $\delta_4, \delta_5 \rightarrow g_{rr}$ komponentadagi deformatsiyani bildiradi,
- $\delta_6 \rightarrow$ gorizontdagi deformatsiyani bildiradi.

